

YASHIL IQTISODIYOTNI TASHKIL ETISH ORQALI EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI**Usmonov Sh. Sh***podpolkovnik, Jamoat xavfsizligi universiteti,
“Iqtisodiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada yashil iqtisodiyotni tashkil etish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilingan. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi yoqilg'i-energetikadek iqtisodiyotning etakchi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarini xorij davlatlari tajribasida taqqoslandi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha turg'un manbalar va transport vositalaridan atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorining o'zgarish tendentsiyasi va ekologik xavfsizlikni ta'minlashning iasosiy istiqbollari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya manbalar, energetika, qattiq maishiy chiqindilar, turg'un manbalar, transport vositalari, atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, jamoat transporti.*

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПУТЕМ СОЗДАНИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация: *В статье рассмотрены вопросы обеспечения экологической безопасности путем организации зеленой экономики, повышения эффективности использования возобновляемых источников энергии. Проводимые в настоящее время реформы в ведущих отраслях экономики, таких как топливно-энергетический сектор, сопоставимы с опытом зарубежных стран. Изложены основные перспективы обеспечения экологической безопасности и тенденции изменения количества загрязняющих веществ, выбрасываемых в атмосферу из стоячих источников и транспортных средств по Республике Узбекистан.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, возобновляемые источники энергии, энергетика, твердые бытовые отходы, устойчивые источники, транспортные средства, выбросы загрязняющих веществ в атмосферу, общественный транспорт.*

ISSUES OF ENSURING ENVIRONMENTAL SAFETY BY CREATING A GREEN ECONOMY

Annotation: *The article discusses the issues of ensuring environmental security through the establishment of a green economy, improving the efficiency of the use of renewable energy sources. Currently, islahoxots implemented in the leading sector of the economy as fuel and energy in our country were compared in the experience of foreign countries. According to the Republic of Uzbekistan, the trend of change in the amount of pollutants*

released from stationary sources and vehicles to atmosphere and the iasosiotic prospects for ensuring environmental safety are described.

Keywords: *green economy, renewable energy sources, energy, solid domestic waste, stagnant sources, vehicles, pollutants released into atmosphere, public transport.*

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi. Xullas, yashil iqtisodiyotda inson, tabiat va iqtisodiyotning bir-biri bilan uyg'un va barqaror rivojlanishini ta'minlagan holda harakat qilish lozim bo'ladi.

“Yashil iqtisodiyot”ning rivojlanishi iqtisodiyotning quyidagi jabxalarini qamrab oladi:

- energetika (energiasamaradorlik, qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish);
- chiqindilarni utilizatsiyalash;
- “yashil” texnologiyalar;
- ekologik sof oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish (organik dehqonchilik);
- “yashil” transport;
- “yashil” qurilish;
- toza suv (surs resurslaridan oqilona foydalanish);
- o'rmon va uni muhofaza qilish.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 maydagi «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida»gi O'RQ-539-son Qonunining 3 moddasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari – atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, er harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi deya ta'rif beriladi. [] Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 85-90 foizi O'zbekistonning tabiiy boyligi hisoblanmish ko'mir, tabiiy gaz va boshqa neft mahsulotlarini yoqish evaziga ishlab chiqariladi. Hozircha O'zbekistondagi «yashil energiya» salmog'i atigi 10-14 foizni tashkil etadi.

Yashil iqtisodiyot hozirgi kunda mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va energetik barqarorligini saqlashda asosiy o'rin tutadi. Bu borada misol qilib Andijon viloyatidagi quvvati 400 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi boshlanpftshtsh e'tirof etish lozim. Stansiya ishga tushgandan so'ng yiliga 700 mln kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi, 212 mln kub metr tabiiy gaz tejaladi va atmosferaga 294 ming tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinadi. Bugungi kunda Buxoro viloyatida ham Koreya kompaniyasi bilan hamkorlikda muqobil energiya manbalari bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda.

Yashil iqtisodiyotni ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning 60-70-yillarida ommalasha boshladi. Bu davrda iqtisodiy adabiyotda an'anaviy iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan “atrof-muhit iqtisodiyoti”, deb nomlangan yangi yo'nalish paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni eksternali, ya'ni tashqi samaralar sifatida talqin etish boshlandi. Unga muvofiq ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro

darajada umumlashtirilishi zarur[]. Misol tariqasida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarining xalqaro savdosini tashkil etish masalasini keltirish mumkin. XX asrning 80-90-yillarida ekologik muammolarni tor doirada iqtisodiy yondashuvlar orqali hal etishning muqobil varianti sifatida ekologiya iqtisodiyoti (ecological economics) fani paydo bo'ldi va jadal sur'atlarda rivojlana boshladi. Atrof-muhit iqtisodiyotidan farqli ushbu yo'nalish iqtisodiyotning maxsus bo'limi sifatida emas, balki ilmiy tadqiqotlarning mustaqil sohasi sifatida talqin etiladi[].

Barcha davlatlarda tuzilishi va davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zini energiya tejash bo'yicha texnologiyalarini keng joriy etmoqda va bu bo'yicha mas'ul ijrochi va nazorat qiluvchi organlari faoliyat yuritadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (Atrof-muxit bo'yicha dastur - United Nations Environmental Programm - UNEP-YuNEP; Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya - ESKATO va hokazolar), Global "yashil" o'sish instituti (Global Green Growth Institute - GGGI) kabi xalqaro tashkilotlar va ko'plab boshqa tashkilotlar "Yashil" o'sish strategiyasini targ'ib qilishda faol rol o'ynaydi[]. UNEP quyosh energiyasini rivojlantirish dasturlariga homiylik qilib, quyosh panellarini xarid qilishda sezilarli chegirmalar taqdim etadi, shu bilan iste'molchilar uchun narxni sezilarli darajada pasaytiradi va ushbu panellarni sotib olishni istaganlar sonini ko'paytiradi. Buning eng mashhur misoli Hindistonning quyosh panellari kredit dasturi bo'lib, u 100 000 kishiga yordam berdi. Ushbu dasturning muvaffaqiyati boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda - Tunis, Marokash, Indoneziya va Meksikada ham shunga o'xshash loyihalarni amalga oshirilishiga olib keldi .

O'zbekiston BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlari hamda Iqlim bo'yicha Parij bitimiga ham qo'shilgan. Har ikkala hujjat milliy hukumatlar zimmasiga "yashil taraqqiyot" talablarini bajarish majburiyatini yuklaydi. Bu esa "yashil iqtisodiyot"ga o'tishimizga katta turtki vazifasini bajardi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida qayta tiklanadigan energiya manbalarini investitsiyalashni qo'llab quvvatlash bo'yicha davlat maqsadli dasturlari ishlab chiqilmoqda, bunday mamlakatlar qatoriga Hindiston, Argentina, Misr va BAAni kiritish mumkin. Ushbu mamlakatlarda «yashil iqtisodiyot»ni investitsiyalash muhitini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan tadbirlar mazkur tarmoq rivojlanishiga xizmat qiluvchi investitsiyalar miqdorining ortishiga olib kelmoqda. 2021 yilda barcha yillarda kuzatilganidek, jahonda «yashil iqtisodiyot»ga jalb qilingan investitsiyalarning katta ulushi quyosh va shamol energiyasiga to'g'ri kelgan.

170 dan ortiq mamlakatlar qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni rejalashtirgan, ulardan 150 tasi toza energiya investitsiyalarini rag'batlantirish siyosatini amalga oshirgan. Bugungi kunda "yashil" energiyani rivojlantirishda etakchilar Xitoy, Daniya, Keniya, Hindiston va Islandiya hisoblanadi. Ulardan Xitoy Xalq Respublikasi energetika sohasida ekologik toza texnologiyalarga investitsiyalar bo'yicha jahon etakchisi sifatida tan olingan. Mamlakat qayta tiklanadigan energiya stansiyalari qurilishiga ham, toza energiya texnologiyalari – batareyalar va elektr transportlarini ishlab chiqarishga ham katta sarmoya kiritmoqda. Xitoyning energiyasi hali ham ko'mirga bog'liq, ammo qayta tiklanadigan energiyaga katta e'tibor qaratmoqda. 2016 yilda Xitoy 77 GVt quyosh va 149 GVt shamol elektr stansiyalarini qurdi. 2022 yilda Xitoyning global yashil energiyadagi ulushi quyosh energiyasining 42 foizini, gidro energiyasining 35 foizini va shamol energiyasining 40 foizini tashkil qilgan.[]

Shuningdek, Xitoy uskunalari ishlab chiqarishga ko'maklashadi va global quyosh batareyalari ishlab chiqarishning 60 foizini jamlaydi. Yevropada vaziyat nisbatan murakkabroq. Hatto ilg'or Germaniyada ham yashil energiyaga o'tish sezilarli sur'atlarda rivojlanmayapti. 2030 yilga kelib mamlakatda elektromobillar soni 15 millionga, ular uchun zaryadlash stansiyalari soni 1 millionga etkazilishi rejalashtirilgan. 2022 yil iyul holatiga ko'ra, bu rejalar atigi 5-6 foizga amalga oshirilgan. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga – shamol va quyoshga o'tish bilan bog'liq vaziyat biroz yaxshiroq: quruqlikdagi shamol stansiyalari allaqachon rejalashtirilgan quvvatning deyarli yarmini ishlab chiqarmoqda, ammo dengizdagi shamol turbinalari va quyosh stansiyalari bilan taraqqiyot biroz yomonroq.

Ba'zi Evropa mamlakatlarida hukumat qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish masalasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Masalan, Shvetsiyada 2019 yilda Rei mamlakatning umumiy iste'molining yarmidan ko'pini tashkil etgan bo'lsa, o'sha paytda Evropa Ittifoqi bo'yicha o'rtacha ulush taxminan 20% ni tashkil etdi – taxminan Germaniya kabi. Bugungi kunda jahonda energiya resurslariga bo'lgan talabning oshishi, dunyo bozorida ularning narxining oshishi oqibatida, barcha davlatlarda energiya resurslarini tejash masalasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda ham «yashil energiya» ishlab chiqarishni rivojlantirish, iqtisodiyotga energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, ijtimoiy soha va tadbirkorlik ob'ektlari hamda aholi xonadonlarida quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar o'tkazilmoqda.

Hozirgi vaqtda yoqilg'i-energetikadek iqtisodiyotning etakchi sohasida isloxotlar davom etmoqda. Prezidentimizning 01.02.2019 yildagi “O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika sohasini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5646-sonli qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining tashkil etilishi ushbu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi.

Mamlakat Prezidentining tashabbusi bilan energetika sohasini isloh qilish maqsadida “O'zbekenergo” AJda tubdan qayta qurish amalga oshirildi. “O'zbekenergo” AJ negizida uchta: “Issiqlik elektr stansiyalari”, “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” va “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. Ushbu qayta tashkil etishdan maqsad elektr energiyasini ishlab chiqarish, tashish, taqsimlash va sotishni tashkil etishning zamonaviy usullariga o'tishdir. 2019 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasining “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida”gi, shuningdek, “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi qonunlarining qabul qilinishi mamlakat elektr energetikasi sohasida muhim qadam bo'lib, bu qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasidagi loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish uchun huquqiy asos yaratadi. Energetika vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot Banki)ning texnik ko'magi bilan mamlakatni 2020 - 2030 yillarda yoqilg'i va energiya bilan ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqildi.

Energetika vazirligi: 2030 yilgacha - o'n yilga mo'ljallangan rejalarida “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan elektr stansiyalarini qurish, quyosh va shamol elektr stansiyalarining umumiy ulushini 21% gacha etkazish”[lga katta e'tiborni qaratmoqda.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston - 2030» strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-300-son qarorining:

a) 51-maqсадida: «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish orqali:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami iste'moldagi ulushini 40 foizga etkazish;
- 2030 yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming mega-vattga etkazish;
- 3 GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish;

- ko'p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish;

- shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish kabi vazifalar belgilandi.

b) 72-maqсадida: Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilagan xolda barcha mavjud poligonlardagi chiqindilarning to'liq qayta ishlash, «yashil tarif» va «yashil subsidiyalar» tizimlarini joriy qilish bo'yicha aniq maqsadlar qo'yildi.

- chiqindilarni qayta ishlash sohasiga tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb etish;
- chiqindilarni kompleks qayta ishlashni yo'lga qo'yish;
- chiqindilarni qayta ishlash yo'li bilan olinadigan energiyani sotib olish mexanizmlarini belgilash kabi g'oyalar ilgari surildi.

Ma'muriy-maishiy bino va inshootlarda energiya resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabr kunidagi “Energiya tejevchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF-220-son farmoni bilan hududlardagi 34 mingdan ortiq ob'ektlarda, shu jumladan 619 ta «Yangi O'zbekiston» massivi va 28 mingdan ziyod xonadonlarda muqobil energiya manbalarini joriy qilish, vazirlik va idoralar kesimida 6 mingdan ortiq ob'ektlarda energiya sarfi hajmida muqobil energiya manbalari ulushini 30 foizga etkazish rejalashtirildi.

Energetika vazirligi elektr va issiqlik energiyasini, ko'mirni ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish, shuningdek neft, gazni qazib olish, ularni qayta ishlash, tashish, tarqatish, sotish va ulardan foydalanish jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solinishini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 1 fevraldagi PF-5646-son Farmoniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 1 fevraldagi

PQ-4142-son qaroriga va Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 iyundagi “O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini va O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 520-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Neft

mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi («O'zneftgazinspeksiya») tashkil etildi.

Shuningdek raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy ekologik monitoring mexanizmini yaratish, ekologik madaniyatni yanada oshirish, bioxilma-xillikni asrash va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tartibga solish, daraxt, butalarni ekish va yashil hududlarni tashkil qilish hamda ularni muhofaza qilishning yangi tartiblarini joriy qilish orqali ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi PF-81-son Farmoni bilan Tabiat resurslari vazirligi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tashkil etildi.

Mamlakat ekologik xavfsizligini va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning atrof muhitga zararli ta'sirini oldini olish, aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, qayta ishlash va utilitatsiya qilish yuklandi.

Ekologiya vazirligi tomonidan 2022 yilda ham ulkan ishlar amalga oshirildi, ayniqsa Toshkent shahridagi avtotransport tizimini rekonstruksiya qilishda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirildi.

Shu bilan bir qatorda olimlarimiz tomonidan yangidan yangi ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha turg'un manbalar va transport vositalaridan atmsoferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori o'rganilganda 2018-2022 yillar davomida 11 348.7 ming tonnani miqdorida ekanligi aniqlandi (1 jadvalga qarang):

1-jadval.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha turg'un manbalar va transport vositalaridan atmsoferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori to'g'risida 2018-2022 yillar bo'yicha taqqoslama[7]
MA'LUMOT

№	Hudud nomi	2018 yil			2019 yil			2020 yil			2021 yil			2022 yil*		
		Jami	Transport	Turg'un	Jami	Transport	Turg'un	Jami	Transport	Turg'un	Jami	Transport	Turg'un	Jami	Transport	Turg'un
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	88,5	54,0	34,5	94,7	57,5	37,2	79,2	50,4	28,8	91,2	60,2	31,0	45,3	25,7	19,6
2	Andijon viloyati	114,7	98,6	16,0	113,3	99,0	14,3	101,6	90,0	11,5	100,3	95,3	5,0	95,4	90,7	4,7
3	Buxoro viloyati	149,0	73,8	75,2	147,4	78,3	69,1	111,4	74,3	37,1	115,0	70,0	45,0	102,3	61,6	40,7
4	Jizzax viloyati	50,6	38,5	12,1	47,4	43,1	4,3	39,6	36,1	3,4	46,1	43,1	3,0	26,2	23,4	2,8
5	Qashqadaryo viloyati	251,4	98,4	153,0	240,1	99,7	140,4	212,6	84,5	128,1	229,9	97,9	132,0	208,0	85,0	123,0
6	Navoiy viloyati	108,7	58,2	50,5	99,6	56,0	43,6	92,4	44,0	48,4	115,6	46,6	69,0	93,4	38,7	54,7
7	Namangan viloyati	119,1	104,0	15,1	107,2	91,3	15,8	95,4	80,4	15,0	137,8	113,8	24,0	47,3	44,3	3,0
8	Samarqand viloyati	155,1	102,5	52,6	164,0	119,9	44,2	160,9	108,2	52,7	121,0	82,0	39,0	120,0	80,7	39,3
9	Surxondaryo viloyati	83,9	78,0	5,9	80,7	73,9	6,9	72,0	65,6	6,5	89,2	82,2	7,0	67,3	62,1	5,1
10	Sirdaryo viloyati	93,5	33,0	60,5	79,4	31,6	47,8	97,3	25,5	71,8	74,7	28,7	46,0	69,4	17,8	51,6
11	Toshkent viloyati	671,1	334,1	337,0	636,9	239,0	397,9	642,4	212,5	429,9	583,2	158,2	425,0	548,3	252,1	298,2
12	Farg'ona viloyati	182,7	129,1	53,6	173,2	123,5	49,6	161,0	110,5	50,5	166,8	119,8	47,0	99,9	67,0	32,9
13	Xorazm viloyati	72,1	64,9	7,2	72,6	65,5	7,2	65,0	58,2	6,8	67,1	60,1	7,0	50,3	44,8	5,5
14	Toshkent shahri	269,9	254,1	15,8	390,5	316,0	74,5	324,2	290,5	33,7	241,4	212,4	29,0	484,3	403,0	81,3
	Jami viloyatlar bo'yicha:	2409,9	1521,2	888,7	2447,1	1494,3	952,8	2255,0	1330,7	924,4	2179,3	1270,3	909,0	2057,4	1296,9	762,4

Undan transport vositalariga 6 913.4 ming tonna va turg'un manbalarga 4 435.3 ming tonna atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori to'g'ri kelmoqda. Ifloslanish darajasiga viloyatlar kesimida tahlil qilinganda asosiy ulushni Toshkent shahar va Toshkent viloyati tashkil etgan.

Raqamlardagi bunday katta farqlanishi Toshkent viloyatining iqtisodiy rivojlanish darajasiga ham bog'liq. Ifloslantiruvchi moddalarning 60%dan ortiq ulushi turg'un manbalarga to'g'ri kelishining va zararli moddalarning atmosferaga ko'p chiqarilishining sababi bu - Toshkent viloyatida, an'anaviy ravishda ishlab chiqarish korxonalarining ko'pligidir.

Toshkent shahrida esa ifloslantiruvchi moddalar miqdorining asosiy ulushi transport vositalari hissasiga to'g'ri kelganini quyidagida ko'rishimiz mumkin.



Toshkent shahri havoning iflosligi bo'yicha IQAir reytingida 2023 yil 11 sentyabr kuni 4-o'ringa, 2022 yil 11 oktyabr kuni hammani ortda qoldirib, dunyoda 1-o'ringa chiqdi. Bu sifatli jamoat transporti yo'qligi sabab shaharda avtomobillar ko'payib borayotgani fonida yuz bermoqda. "O'zgidromet" stantsiyalari qayd etib boruvchi ko'rsatkichlarga asoslanuvchi IQAir portaliga ko'ra, soat 20:30 atrofida Toshkent havosida mayda PM-2,5 dispers zarralarining konsentratsiyasi 212 mkgG'm³ni tashkil etgan - bu "juda zararli" tasnifidagi ko'rsatkich bo'lib, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti belgilagan me'yordan 42,4 barobarga ko'pdir.

Xulosa o'rinda shuni aytilish mumkinki, ifloslanish darajasini pasaytirish maqsadida, yashil iqtisodiyotimizni rivojlantirish yo'lida quyidagilarni taklif etamiz:

-shaharlarda ichki jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga yuruvchi elektrobuslarga o'tkazish bilan birga, ulardan axoli uchun tekin foydalanishni davlat tomonidan subsidiya qilish orqali amalga oshirib, ichki tirbandlik muammosini echish hamda ifloslanish darajasini optimal kamaytirish (chet el tajribasidan keng foydalangan xolda) mumkin.

Masalan Lyuksemburg jamoat transportini hamma uchun bepul qilishga qaror qilgan dunyodagi birinchi mamlakat bo'ldi. Loyiha 2019 yil yozida boshlangan. Avtomobil o'rniga-jamoat transporti: Germaniyadagi jamoat transporti holatining o'zgarishi global iqlim isishi bilan bog'liq holda muhokama qilinmoqda. Subsidiyalarni qoplash maqsadida shaxsiy avtotransportdan foydalanuvchilarning yoqilg'isiga, turidan qat'iy nazar belgilangan imtiyozlarni bekor qilish, aksiz solig'ini ko'tarish maqsadga muvofiq.

- yirik korxonalar va tashkilotlarning oldiga ishchi-xodimlarning avtotransportiga avtoturargox qurgandan ko'ra, "qo'riqlanadigan" velosiped to'xtash joylarini tashkillashtirish

lozim, shu bilan birga veloturargox tom qismini qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanuvchi tadbirkorlarga ijaraga berish йўли билан заряд орқали қувватлантириш шахобчаларини яратиш, ташкил этиш, улардан фойдаланиш ҳамда tegishli ob'ektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga Davlat byudjetidan subsidiyalar olish lozim;

- elektroskuter ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirishimiz va ularga xarakatlanish uchun veloyo'lakchalar infratuzilmasini yaratishimiz ldarkor;

- aholi foydalanadigan avtotransportni aksariyati 4 va undan ko'p o'rindiqliligi, ko'p yoqilg'i iste'mol qilishini inobatga, ular undan asosan ish va yumushi bilan ko'p xolatlarda yakka yoki bir nafar bolasi bilan yurishini inobatga olib, kichik avtotransportlarga axolimizni o'rgatishimiz, mamlakatimizda uni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishimiz lozim.

Misol uchun Hozirda mavjud elektromobillar ichida eng kichik va eng arzoni Geely hisoblanib, unda 2 ta eshik bor. 2022 yil birinchi yarmining o'zida 188 653 donasi sotilgan. Shu jihatdan Geely mamlakatdagi mashhur avtokonsernlarga raqobatchi hisoblanyapti. Narxi ham kambag'al qatlam uchun hamyonbop bo'lgan va seriyali tarzda ishlab chiqariladigan arzon avtomobil. 4,4 ming dollardan 7,3 ming dollargacha bo'lishi kutilmoqda.

Davlatimizda Yashil iqtisodiyotga, qayta tiklanadigan energiya manbalarini, bir so'z bilan aytganda yashil energetikani rivojlantirish va iqtisodiyotga energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish dolzarb masala bo'lmoqda. Davr talabidan kelib chiqib ijtimoiy soha va tadbirkorlik ob'ektlari hamda aholi xonadonlarida quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar o'tkazilmoqda. Bu davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim turtki hisoblanib, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishiga, axolimizni turmush darajasini yaxshilashga, uzluksiz elektr energiya bilan ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 maydagi «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida»gi O'RQ-539-son Qonuni.

2. Beder, S. 2011, 'Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness', Environmental Conservation, vol. 38, no. 2, pp. 140-150.

3. Social Ecological Economics: Understanding the Past to See the Future. The American Journal of Economics and Sociology. Volume70, Issue2 April 2011. <https://doi.org/10.1111/j.1536-7150.2011.00777.x>

4. Jonathan M. Harris. Sustainability and Sustainable Development. International Society for Ecological Economics. -P. 1.

5. Yashil iqtisodiyot – muhim hayotiy zarurat maqolasi. 19.02.2023 205 Nosir MAHMUDOV, i.f.d.

6. <https://minenergy.uz/uz/lists/view/10>

7-8. O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy kengashi ma'lumotlari asosida.